

## MUSTAMLAKA BOSHQARUV TIZIMI: MUAMMO, TAHLIL VA XULOSA

**Valiyeva Nafisa Abdumajitovna**

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi

[nafisavaliyeva1981@gmail.com](mailto:nafisavaliyeva1981@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida siyosiy hayot, jumladan boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, xalqning ahvoli, ziyolilarning munosabati, ularning ma'naviy hayotga ta'sir o'tkazishga harakat qilishlari xususida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Mulkdor, ulamolar, qozilar, aktsiyadorlik jamiyatlari, Turkiston general-gubernatorligi, «inorodets» («begona zot»), tuzemets («yerli aholi»).*

## КОЛОНИАЛЬНАЯ СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМА, АНАЛИЗ И ЗАКЛЮЧЕНИЕ

**Валиева Нафиса Абдумажитовна**

старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье представлена информация о политической жизни Туркестанского края, в том числе о недостатках системы управления, состоянии народа, отношении интеллигенции, ее стремлении влиять на духовную жизнь.*

***Ключевые слова:** Владелец, писцы, судьи, акционерные общества, Туркестанское генерал-губернаторство, «инородец» («иностранная порода»), туземец («землевладельческое население»).*

## COLONIAL GOVERNMENT SYSTEM: PROBLEM, ANALYSIS AND CONCLUSION

**Valieva Nafisa Abdumajitovna,**

senior teacher of the Namangan State Pedagogical Institute

### ANNOTATION

*This article provides information about the political life of the Turkestan region, including the shortcomings of the management system, the state of the people, the attitude of the intelligentsia, its desire to influence the spiritual life.*

**Key words:** *Owner, scribes, judges, joint-stock companies, Turkestan Governor-Generalship, "foreigner" ("foreign breed"), native ("landowning population").*

### INTRODUCTION (ВЕДЕНИЕ / KIRISH)

Rossiya imperiyasi hokimiyati O‘rta Osiyoni o‘z ichki mustamlakasiga aylantira oladigan ma‘muriy va siyosiy tizimni yaratishga zamin hozirlagan edi. Bu tizim o‘zining to‘liq harbiy hukmronligini qaror toptirishni, o‘lka iqtisodiy va siyosiy hayoti ustidan yalpi nazorat o‘rnatishni anglatar edi. Bu tizimning boshqa bir jihati Turkiston o‘lkasi — Xiva, Buxoro va Qo‘qonni tashqi dunyodan tamomila yakkalab qo‘yishda, Rossiya imperiyasi tashqi davlat chegaralarini barpo etish yo‘li bilan har qanday iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni to‘xtatishdan iborat edi.

Ingliz imperialistlari bilan imzolangan shartnomaga ko‘ra 1869— 1872-yillarda Panj daryosi bo‘ylab mahalliy xalqni ikkiga ajratib tashlab, surfiy chegara o‘rnatildi. 1881-yilda Skobelev Turkmanistonni bosib olishi natijasida Eron bilan hozirgi chegaralar belgilandi. Xuddi shu yili Sharqiy Turkistonning Ili o‘lkasidagi qo‘zg‘olon chor qo‘shinlari tomonidan bostirilgandan so‘ng Rossiya va Xitoy imperatori hozirgi (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Xitoy o‘rtasidagi) chegaralarni belgilab, shartnoma imzoladilar.

### LITERATURE REVIEW (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR)

Rossiya mustamlakachilik siyosati maqsadi, bu — mintaqada rus aholisining ma‘lum bir foizini joylashtirish edi. Markaziy Rossiyadan ochlik va yersizlikdan qochgan rus dehqonlarini ko‘chirib keltira boshladilar, ammo shaharlarda rus aholisini shakllantirish siyosati muhim ahamiyatga ega edi. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahri Rossiyadan ko‘chib kelgan aholi hisobiga zudlik bilan kengayib bordi. Bu aholining katta qismi iste‘foga chiqqandan keyin shaharda yashash uchun qolgan askarlar, davlat amaldorlari, Rossiya armiyasi amaldorlari, Rossiya firmalari xizmatchilari, jazo manziliga jo‘natilib, jarimaga tortilgan xizmatchilar, xizmatdan bo‘shatib yuborilgan harbiy xizmatchilar edi. Anhor shaharni qoq ikki qismga ajratgan bo‘lib, eski shaharda mahalliy aholi, yangi shaharda esa rus aholisi yashardi.

Shaharning bu ikki qismi bir-biri bilan kamdan-kam aralashgan holda o'z iqtisodiy va ma'naviy hayotini boshdan kechirar edi.

Boshqaruv tizimi va ma'muriy-hududining joylashuvi Rossiya imperiyasi olib borgan tinimsiz urushlar uning cheklangan moliyaviy zaxiralarini kasodga uchratdi. 1874-yilda Rossiya Sharqiy Turkistondagi Yoqubbek qo'zg'olonini bostirish uchun katta qo'shin jo'natdi. Ayniqsa, 1877—1878-yillarda Turkiya bilan olib borgan urush San-Stefan sulh shartnomasi bilan yakunlanishi imperiyaga juda qimmatga tushdi. 1878—1880-yillarda ingliz-afg'on urushi tufayli Afg'onistonga yurish qilishga mo'ljallangan rus armiyasi askarlari soni Turkiston o'lkasida qariyb 40 mingga yetgandi. Rossiyaning harbiy xarajatlari yangi mustamlaka mamlakatlarni ezish hisobiga qoplandi. 1877-yilda Toshkentda "Shahar nizomi" joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq shahar boshqaruvi Dumaga o'tgan edi. Duma a'zolarining 1/3 qismi shaharning "Osiyo" qismidan, 2/3 qismi esa "yangi Toshkent" qismidan saylangan edi. Natijada shaharning 80 ming mahalliy aholisidan 21 deputat, 3900 nafar yevropalik aholidan esa 48 deputat qatnashadigan bo'ldi. Shahar xo'jaligini yuritishga oid barcha ishlar ana shu Duma qo'liga o'tdi. Duma ustidan rahbarlik qiluvchi shahar boshlig'ini general-gubernator taqdimiga ko'ra Harbiy vazirning o'zi tasdiqlar edi. Joylarda boshqaruv apparati vazifalarining bir qismi mahalliy rus ma'muriyati nazorati ostida ish yuritgan mahalliy oqsoqollar va volostnoylarga o'tkazildi. Ular aholidan "soliqlarni qurutday sanab olar edi".

## DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ / MUHOKAMA)

1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tasdiqlagan "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi yangi Nizom" arzimas o'zgarishlar bilan 1917-yilga qadar amal qildi. Nizom to'rtta asosiy bo'limdan iborat bo'lgan:

- 1) o'lkaning ma'muriy tuzilishi;
- 2) sud tuzilishi;
- 3) yer tuzilishi;
- 4) soliqlar va yig'imlar.

Bu Nizom general-gubernatorlik hududiy birliklari nomlarini o'zgartirishni va ularni bundan keyin ham bir xillashtirib borishni nazarda tutar edi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand uyezdlari uning tarkibiga kiritildi. Amudaryo bo'limining bir qismi Sirdaryo viloyatiga o'tkazib yuborildi, Qurama uezdining nomi Toshkent uezdi deb qayta nomlandi. Farg'ona viloyati o'zgarimasdan qoldi. Turkiston general-gubernatorligining umumiy yer maydoni 1,7 million kv. km bo'lib, bu Frantsiya va Germaniya hududini birga

qo‘shib hisoblaganda ham ikki baravar ko‘p, ayni mahalda aholisi esa jami 5,2 million kishini tashkil etar edi. o‘zbeklar va boshqa tub millatlar 1897-yilda 5 millionni, 1911-yilda esa qariyb 6 millionni tashkil etgan.

1886-yilgi "Nizom"ga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy boshqaruvi yangi idora — Turkiston general-gubernatori Kengashi bilan to‘ldirilgan edi. Viloyatlar harbiy gubernatorlari, general-gubernator devoni boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig‘i bu Kengashning doimiy a‘zolari bo‘lishgan. Bu idoradan ko‘zlangan maqsad hokimiyat qonunchilik asoslarini yaratish bo‘lgan. Kengash o‘lkani idora qilishga taalluqli masalalarda qonun chigarish huquqiga ega edi. 1886-yilgi "Nizom" asosida Buxoroda Rossiya siyosiy agentligi ta'sis etildi, uning ruxsati va rozilgisiz Buxoro amiri na tashqi, na ichki siyosat masalalarida biror ishni mustaqil hal qila olar edi. Siyosiy agent shu yerda istiqomat qiluvchi nasroniylar manfaatlarini himoya qilar edi.

## RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ / NATIJALAR)

O‘rta Osiyo hududi sovet davlati tarkibiga kiritilgach, mahalliy boshqaruv tizimi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar yangicha asosda qurila boshladi. Bu jarayonda hukumat mahalliy xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni “zamonaviylashtirish”, jamiyatda erkaklar bilan teng faoliyat yuritishini ta'minlash (keyinchalik ular mehnatidan keng foydalanish) masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Ushbu jarayonni yanada tezlashtirish masalasi O‘rta Osiyo partiya komiteti xotin-qizlar bo‘limlari xodimlari ishtirokida o‘tkazilgan kengashda muhokama etilib (1926-yil sentyabr), ayollarni majburiy ravishda “ozodlikka chiqarish”, ya'ni paranjidan xalos etishga qaror qilindi[1. B. 105] “Hujum” deb atalgan bu tadbir boshlangan ilk kezlarda muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi albatta, ya'ni ayollarga o‘qish, bilim va malakasini oshirishga imkon yaratildi. Natijada o‘zbek ayollari orasidan maorif, madaniyat, fan, san'at, tibbiyot va ijtimoiy turmushning barcha sohalarida faol ziyolilar yetishib chiqdi. “Hujum” kompaniyasining ilk yillari ko‘p ayollar paraji tashlab (1927-yil bahorida 100 ming nafar), ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qatnasha boshlagan bo‘lsa-da, bu siyosatni amalga oshirish salbiy oqibatlar bilan kechdi. O‘zbekiston SSR prokuraturasiga viloyatlardan o‘ta maxfiy tamg‘a ostida topshirilgan hisobotlarda qayd etilishicha, 1927-yili “Hujum” harakati aholining ma'lum bir qismi, jumladan, davlat tashkilotlarida ishlaydigan erkaklar ayoli, shuningdek, kambag‘al va batraklar oilasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan, ulamolar, boylar, savdogarlar esa unga qarshi targ‘ibot-tashviqot olib borgan[2. B.62-63].

“Hujum” shu qadar shiddatli tus oldiriladiki, hatto xotin-qizlar yuzini ochish bo‘yicha O‘zbekiston, Turkmaniston va boshqa respublikalar o‘rtasida “sotsialistik musobaqa” tashkil qilinadi. Qizig‘i shundaki, bu tadbirga respublikalarning sovet sud-huquq, ichki ishlar organlari, prokuratura xodimlari va tergovchilar ham jalb etiladi. Musobaqa davomida (1929-yil 1 sentyabrdan 1930-yil 1 martgacha) sud xodimlari ajralish ishlarini jadallashtirish bilan shug‘ullangan bo‘lsa, boshqa ishtirokchilar qishloqlarga borib jamiyatda ayollar o‘rni va haq-huquqlari to‘g‘risida ma‘ruzalar o‘qishi zarur edi.

Shuningdek, ularga mahalliy xotin-qizlardan sud-huquq organlariga xodimlar jalb etish, sud jarayonlarida xalq maslahatchisi sifatida qatnashishiga sharoit yaratish vazifasi ham yuklanadi. Bu vaqtda ayollardan keksa eridan ajralish xususida sudga murojaatlar tushib turgan bo‘lib, “musobaqa” davomida bu jarayon yanada avj olgan. Natijada O‘zbekistonda ko‘plab oilalar buzildi, ajralishga ariza bergan ayollarning ba‘zilari eri yoki aka-ukasi tomonidan jazolandi. Sovetlarning xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish borasida tezkorlik bilan amalga oshirgan siyosati mahalliy ayollarning begunoh qurbon bo‘lishiga-da sabab bo‘ldi. Buni tasdiqlovchi ko‘plab dalillar mavjud. Davlat siyosiy boshqarmasining Qo‘qon okrugi tomonidan O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetiga topshirilgan dalolatnomaga ko‘ra (1927-yil iyun), Buvayda va Beshariq tumani hamda Oqtepa va G‘ori qishlog‘ida paranji tashlagan ayollar o‘limi bilan bog‘g‘liq jinoiy ishlar qo‘zg‘atilgan[3. B. 65-66].

1927-28 yillar O‘zbekistonda 2.5 mingdan ziyod ayol [4. Son. 1992-yil 11 sentyabr] bevaqt hayotdan ko‘z yumgan bo‘lsa, Xorazm shahar prokurori bergan xabarnomada “... ko‘rib chiqilgan atigi 20 ta jinoiy ishda 68 nafar ayol o‘limi ma‘lum bo‘lgan” [5. B.87-88] deya ta‘kidlanadi. Boshqa bir hujjatda 1928-yili respublika bo‘yicha 208 ayol o‘limi bilan bog‘liq jinoiy ish ko‘rilgani, haqiqatda esa bu raqam ancha katta ekani, masalan, birgina Xorazm viloyatida 68 ayol o‘ldirilgani-yu, bor-yo‘g‘i 20 ta jinoiy ish qo‘zg‘atilgani, okrug prokurorlarining 1929-yil to‘rt oyi yuzasidan topshirgan hisobotida esa 21 ayol o‘ldirilgani, 2 nafari jarohatlangani qayd etilgan [6. B. 86-87]. “1929-yil 1 yanvardan 15 aprelgacha Farg‘ona okrugining Marg‘ilon rayonida 2 ayol og‘ir yaralangan, Andijon okrugi Muxunbek qishlog‘ida faol ayollardan birini mahalliy imom o‘ldirgan, Shahrixon rayonida 2, Surxondaryoda 4, Zarafshon okrugida 2, Xorazm okrugida 1 ayol o‘ldirilgan va 2 nafari jarohatlangan, Samarqand okrugida 3, Toshkent okrugida 2, umumiy hisobda 20 nafar ayol o‘ldirilgan va 5 tasiga og‘ir tan jarohati yetkazilgan” [7.1153-ish]. Bu jarayonning salbiy oqibatlari aks etgan yana ko‘plab hujjatlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

O‘zbekiston hududida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayondagi ishtiroki, jumladan, paranji tashlash bilan bog‘liq muammolar, bu jarayonlar negizida



sodir etilgan turli jinoiy ishlar XX asr 30-yillari oxirlarida ham davom etgani arxiv hujjatlarida uchraydi.

Xususan, bu borada O‘zbekiston SSR prokuraturasining 1939-yil 2 fevralda 56-sonli buyrug‘i e‘lon qilinadi. Unda ayollarning paranji tashlash jarayoni bilan bog‘liq jinoiy ishlar xali-hanuz davom etayotgani, shu sababli bu kabi jinoiy ishlarning olib borilishi, ular soni va holatini doimiy nazorat qilish, shuningdek, ayollarni davlat tashkilotlariga jalb etishni jadallashtirish (prokuratura va shu kabi tashkilotlar) zarurligi ta‘kidlanib, ularni bajarishga O‘zbekiston SSR va Qoraqalpog‘iston ASSR prokurorlari yordamchilari mas‘ul qilib belgilanadi [8. B. 4-5].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda sovetlarning xotin-qizlar bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy tadbiri tufayli o‘zbek ayollari ruhan uyg‘ondi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida erkin, faol qatnasha boshladi. Ammo, sovet davrida bu jarayonga birtomonlama qaralib, faqat ijobiy baho berilgan bo‘lsa-da, o‘sha davrga tegishli ko‘plab birlamchi manbalar mahalliy aholining tarixan tarkib topgan turmush tarzi, urf-odatlar, islom dini bilan bog‘liq an‘analar hisobga olinmagani bois, bu ishlar salbiy oqibatlar bilan kechganidan dalolat beradi.

#### REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / ADABIYOTLAR RO‘YHATI):

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ilmiy muharrir M.Jo‘raev. Toshkent, “Sharq”, 2000. 105-bet).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivi, 58-fond, 5-ro‘yxat, 865-ish, 62-63-varaqlar.
3. O‘zR PDA, 58-fond, 2-ro‘yxat, 1153-ish, 65-66-varaqlar.
4. Alimova D. “Hujum”ga zarurat bormidi? “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, 1992 yil 11 sentyabr
5. O‘zR PDA, 58-fond, 2-ro‘yxat, 1153-ish, 87-88-varaqlar
6. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi, 374-fond, 27-ro‘yxat, 1708-ish, 86-87-varaqlar. Ma‘lumotlar O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz arxivi fondidan olingan.
7. O‘zR PDA, 58-fond, 2-ro‘yxat, 1153-ish
8. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi, 8131-fond, 16-ro‘yxat, 48-ish, 4-5-varaqlar.